

## **MAKTABGACHA TA'LIM MAZMUNINI MODERNIZATSIYALASH.**

**N.B.Gafurova**

Toshkent shahar,Uchtepa tumani 193 - ixtisoslashtirilgan davlat umumtalim maktabi  
direktori

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'limdagi tub islohotlar natijasida tizimdagi innovatsion texnologiyalar va o'qitish mazmunidagi yangiliklar va maktabgacha ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy kompetensiyalar, pedagogik prognostika, fan-texnika taraqqiyoti, bilim, ko'nikma va malaka, innovatsion,o'quv materialli.

**Аннотация:** В статье рассматриваются инновационные технологии и нововведения в содержании обучения в системе образования, являющиеся результатом коренных реформ в дошкольном образовании, а также важность модернизации содержания дошкольного образования.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, компетентностный подход, профессиональные компетенции, педагогическое прогнозирование, научно-техническое развитие, знания, умения и квалификации, инновационные образовательные материалы.

**Abstract:** The article examines innovative technologies and innovations in the content of education in the education system, which are the result of radical reforms in preschool education, as well as the importance of modernizing the content of preschool education.

**Keywords:** Preschool education, competency-based approach, professional competencies, pedagogical forecasting, scientific and technological development, knowledge, skills and qualifications, innovative educational materials.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida uning globallashuv jarayoni kechmoqda. Bu esa, maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiyalash, malakali kadrlarni ob'ektiv saralash tamoyillari asosida pedagoglarning shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarini (o'z-o'zini faollashtirish va namoyon qilish, kreativlik, kasbiy relevant ma'lumotlarni topish va ulardan samarali foydalanish) rivojlantirishga qaratilgan yangi maktabgacha ta'lim tizimi shakllantirish muammolarini tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Bularning barchasi pirovard natijada jamiyatda maktabgacha

ta'limning asosiy muammolarini yechishga ko'maklashadi hamda pedagoglarning samarali faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat beradi.

Davlatimiz rahbari tomonidan bu sohada tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimini barpo etish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi F-60-son Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi. Iqtisodiyotning liberallashtirilishi va diversifikatsiya qilinishi, globallashtirish, raqamlashtirish, maktabgacha ta'lim sohasi uchun malakali mutaxassislarni tayyorlashni, maktabgacha ta'lim sohasida yangi tizimning joriy etilishi xalqaro tajribalarga ega bo'lgan hamda kasbiy kompetentligi yuqori bo'lgan pedagoglarni tayyorlashni talab qiladi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarning amaldagi holati va muammolari tahlil qilish natijasida qo'yidagi xulosalarga kelindi. Maktabgacha ta'lim tizimi mazmunini modernizatsiyalash bir qancha tushunchalarni to'plash va umumlashtirishni taqozo qiladi:

birinchidan, maktabgacha ta'limdagi tub islohotlar innovatsion texnologiyalar va o'qitish mazmunidagi yangiliklarini hisobga olish maktabgacha ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning muhim vazifalaridan biridir;

ikkinchidan, mehnat bozorida o'zgarishlar, tarbiyachi-pedagoglarga qo'yiladigan zamonaviy talablar maktabgacha ta'lim mazmunida pedagog-tarbiyachilarni zamonaviy bilim, ko'nikma, malakalar hamda kasbiy kompetensiyalar bilan qurollantirishi kerak. Mana shunday pedagogik prognostika natijasida maktabgacha ta'lim tizimi mazmunini fan-texnika taraqqiyoti hamda xalqaro va mehnat bozori talablari asosida belgilash muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, bugungi zamonaviy ta'limda trendga aylangan kelajak ko'nikmalar - tanqidiy fikrlash, kreativlik va jamoada ishlash kabilar ta'lim mazmunini modernizatsiyalashni talab etadi.

Yuqoridagilarga asosan maktabgacha ta'lim mazmuni modernizatsiyalash pedagog-tarbiyachilarda individual yondashuvni kuchaytirish, o'zining kasbiy rivojlanish traektoriyasini mustaqil ravishda nazorat qila oladigan mutaxassisni tarbiyalash imkoniyatiga ega barqaror va dinamik rivojlanadigan ko'p bosqichli maktabgacha ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan.

Ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish to'g'risida fikr yuritishdan oldin, "modernizatsiya" terminlari mohiyatiga e'tibor qaratamiz.

"Modernizatsiya" atamasi fransuzcha "moderne" – eng yangi, zamonaviy so'zidan olingan umumilmiy hosila bo'lib hisoblanadi va biror narsani zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirishni bildiradi. Yoki, modernizatsiya – bu jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalaridagi innovatsion siljishlarni o'z ichiga oladigan keng qamrovli jarayondir. Modernizatsiyalash – pedagogika ensiklopediyasida ta'limni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish maqsadida xilma-xil o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy pedagogik jarayon.

Pedagogikada modernizatsiyalash tushunchasi ta'lim tizimini nazariy metodologik tadqiq etishni nazarda tutadi. Ko'plab G'arb va milliy sotsiologlar modernizatsiya jarayonlarini jamiyatimiz rivojlanishining turli o'tish davrlari: an'anaviydan zamonaviyga, industrialdan postindustrialga o'tish bilan bog'lashadi. XX asrning 50-yillarida modernizatsiya tushunchasi oxir-oqibat global sivilizatsiya jarayonining ma'lum bir umumiy modelini asoslashga aylandi va uning mohiyati ilmiy-texnik taraqqiyot, ijtimoiy-tarkibiy o'zgarishlar, me'yoriy va qadriyat tizimlarining o'zgarishi natijasida an'anaviy jamiyatdan ratsional jamiyatga o'tishning xarakterli xususiyatlari va yo'nalishlarini tavsiflashdan iborat. Bugungi kunda modernizatsiyaning vazifasi mamlakatlar uchun boshqa rivojlangan mamlakatlarga yetishish talabi tushunchasidan yuqoriroq bo'ldi. Ushbu mamlakatlar doimiy rivojlanishning innovatsion mexanizmlarini yaratdilar va ulardan muvaffaqiyatli foydalanmoqdalar, shuning uchun haqiqiy modernizatsiya mamlakatdagi ta'lim tizimini tashkil etishning ma'lum darajasiga erishish va amalga oshirish emas, balki ishlab chiqarish va umuman jamiyatni, shu jumladan ta'lim tizimini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi keltirilgan tahlillarimiz asosida bizning nazarimizda mamlakatimizda maktabgacha ta'limda tub modernizatsiya amalga oshirildi. Maktabgacha ta'limni yangi sifat va formatda rivojlantirish, yangi maktabgacha ta'lim tizimi muassasalarida ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" F-60-son Farmoni.

2. Ангеловский К. Самоменеджмент инновационной как модель самостоятельного направления профессионально-педагогической деятельности учителя //

Международный журнал экспериментального образования. – 2015. – № 4, – С. 125-127.

3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Институт проф. образования, 1995. – 336 с.

4. Новиков А.М. Основания педагогики. – М.: 2010. – 376 с.